



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper*

THE ROLE OF SERICULTURE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL HANDICRAFTS IN UZBEKISTAN

Sodikova Makhbubakhon Rakhmonaliyevna

Lecturer at Fergana State University

Abstract. This article examines the role of sericulture in the development of Uzbekistan's national crafts. The article analyzes the role of sericulture in the history of Uzbekistan, its revival and development during the years of independence, as well as the economic, cultural, and social significance of the industry. The article concludes by emphasizing the importance of sericulture in the development of Uzbekistan's national crafts and offers suggestions for further development of the industry..

Keywords: handicrafts, cocoon, silk, fabric, textiles, cloth, silk, natural fiber, sericulture.

O'ZBEKİSTONNING MILLİY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI

Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna

Farg'ona davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: sodikovamahbubahon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston milliy hunarmandchiligi rivojida ipakchilikning o'rnnini o'rganadi. Maqolada ipakchilikning O'zbekiston tarixidagi roli, mustaqillik yillarda uning tiklanishi va rivojlanishi, shuningdek, sohaning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola xulosasida ipakchilikning O'zbekiston milliy hunarmandchiligi rivojidagi o'rni muhimligi ta'kidlangan va sohani yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, pilla, ipak, mato, to'qimachilik, gazlama, shoyi, tabiiy tola, ipakchilik.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N15>

Kirish. O'zbekiston tarixida ipakchilikning o'rni juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ipakchilikning O'rta Osiyoga kirib kelishi milodiy IV asrlarga to'g'ri keldi. Bu davrda Buyuk ipak yo'li orqali ipak qurti va uning yetishtirish texnologiyalari Xitoydan O'zbekiston hududiga tarqalgan. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi Buyuk ipak yo'lining muhim qismi bo'lganligi sababli, ipak ishlab chiqarish va savdosi bu yerda keng rivojlangan. Qadimiy shaharlar, masalan, Samarqand va Buxoro ipak ishlab chiqarishning yirik markazlariga aylangan.

O'rta asrlarda ipakchilik yanada rivojlanib, yuqori darajaga ko'tarilgan. Ipak matolar, xususan, atlas, adres, shoyi kabi matolar ishlab chiqarish keng tarqalgan.

Rossiya imperiyasi davrida O'zbekiston ipakchilik sanoati Rossiya sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirilgan. Pilla yetishtirish hajmi oshirilgan, ammo ipakni qayta ishslash sanoati rivojlanmagan. Turkistonda 1867–1872-yillar davomida mexanik dastgohlari bo'lgan yettita pillakashlik fabrikalari ochilgan [4:17]. O'zbekiston hududida ishlab chiqarilgan ipaklar

nafaqat mahalliy bozorda, balki xorijda ham katta shuhrat qozongan. Ipak matolarning keng iste'molda bo'lgani mavsumda ommaviy ravishda ipak qurtini parvarish qilish va qo'l mehnatiga assoslangan mahalliy ipakchilikning rivojiga sabab bo'ldi [4: 30].

Markaziy Osiyo aholisi hunarmandchilikda asrlar davomida to'qimachilik mahsulotlari tayyorlash bilan bog'liq turli xil an'analar yuzaga kelgan bo'lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham o'lka aholisi, xususan farg'onaliklar bu an'analardan foydalanib kelmoqda edi [5: 113].

Sovet davrida ipakchilik sanoati davlat tomonidan rejalshtirilgan iqtisodiyotning bir qismi sifatida rivojlantirilgan. Pilla yetishtirish hajmi yanada oshirilgan, ipak kombinatlari qurilgan. Sovet hokimiyati ipakchilik sohasini rivojlantirish maqsadida bu tarmoq uchun agronom kadrlar va ipak qurti urug'chiligi mutaxassislarini tayyorlashga e'tibor qaratgan [4:67]. 1922-yilda ipakchilik sohasini ilmiy tashkil etishga qaratilgan Toshkent va Farg'ona stansiyalari ochilgan [4:68]. 1927-yil 12-noyabrda Toshkent ipakchilik stansiyasi bazasida «O'rta Osiyo ipakchilik va ipakshunoslik instituti (O'OIITI – SANIISh)» tashkil etilgan [4: 68].. Ammo, bir tomonlama rivojlanish, asosan xom ashyo yetishtirishga e'tibor qaratilishi, sifat va xilma-xillikning yetarli emasligi kabi muammolar mavjud bo'lgan.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zamirida qaytadan tiklandi. O'zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiy korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini shaklida rivojvana bordi [6: 421].

MATERIALLAR VA METODLAR. 2000-2021-yillarda O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator qonun va qarorlar ishlab chiqildi. Jumladan 2009-yilda "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" [1:1] prezident qarori, hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga bag'ishlangan. 2021-yilda "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [3:1]. Ushbu qaror hunarmandchilik sohasida marketing va savdo tizimini takomillashtirish, eksportga ko'maklashish va hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilishga qaratilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida o'zbek xalqning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyatini bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsadida hunarmandchilik sohasida bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar belgilab berilgan [2: 1].

O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlarida hamda Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahri azal-azaldan ipakchilar, hunarmandlar yurti deb ta'riflanadi. 2017-yilda YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining qarori bilan o'zbek an'anaviy atlas va adreslarini tayyorlash texnologiyasi YUNESKOning nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar reyestriga kiritilgan. Noyob amaliyot "Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish, atlas va adreslarni

himoya qilish, an'anaviy texnologiyalarni yaratish markazi” deb nomlandi [8:2]. 2020-yil boshida davlat va xususiy sheriklik asosida Marg’ilonda yana bir hunarmandchilik markazi qurildi [8:2]. Bu erda atlas va adresning 200 ga yaqin turi, gilamchalar, tikuvchilik va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Gilamlar asosan Turkiyaga, atlas, adres matolar AQSH, Italiya, Fransiya, Rossiya, Qozog’iston, Tojikiston kabi mamlakatlarga eksport qilindi [9: 3].

Muhokama va natijalar. O’zbekistonda xotin-qizlar milliy hunarmandchilikning turli sohalarida faol ishtirok etib kelganlar. Ipakchilik sohasida xotin-qizlar o’zlarining mohir qo’llari bilan tabiiy ipakdan chiroyli va mustahkam matolar to’qishgan. Farg’ona viloyatida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash va ular o’rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, Prezidentning 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari ijrosiga jadal kirishilgani hududda ishsizlik muammosini hal etishga tashlangan ishonchli odimlardan biri bo’ldi.

2020-yilda tajriba tariqasida Marg’ilon shahrida davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan “Hunarmandchilik markazi” bunyod etildi. Markazda 200 dan ortiq turdag'i atlas va adres to’qish, gilamchilik, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo’lga qo’yilib, 600 dan ortiq fuqarolarning bandligi ta’minaldi. 13 ta hududda “Hunarmandlar markazi” ochildi [15:1].

Farg’ona viloyatning barcha tumanlarida ishsiz fuqarolar, ayniqsa, ayollar va yoshlar bandligini ta’minalash maqsadida “Hunarmandlar markaz”larini tashkil etish topshirig’i berilgan edi. Toshloq, Bag’dod, Quva, Yozyovon, Dang’ara, Beshariq, O’zbekiston, Farg’ona, Furqat, Buvayda, Uchko’prik, Oltiariq, Rishton tumanlarida barpo etildi. Ushbu markazlar 10 nafar tashabbuskor hunarmand tadbirkorlarga davlat-xususiy sheriklik asosida biriktirib berildi. [10:2]. Marg’ilon shahridagi hunarmandlar markazida milliy mato va ipakli gilamlar to’qildi hamda yangi model mahsulotlar ishlab chiqarildi. Qo’shtepa tumanidagi hunarmandchilik markazida ipak va jun tolasidan gilam to’qilish, hamda kashtachilik tashkil etildi. Marg’ilon shahridagi “Yodgorlik” korxonasida 200 dan ortiq turdag'i atlas va adres to’qish, gilamchilik, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi. [12:2]. Markazning quyi qavatida atlas, adres, shoyi, baxmal, beqasam matolar to’qiladi. Birinchi qavatdan tayyor mahsulotlar ko’rgazmasi, podium, chevarxona o’rin olgan. Bu yerdagi do’konda matoga gul chizish, bog’lash, davra, qad tayyorlash jarayonlari ko’rgazmali tarzda namoyish etiladi. Binoning yuqori qavatida gilam seksi joylashgan. Markazda barcha mahsulotlar to’liq qo’l mehnati yordamida 100 foiz toza ipakdan to’qiladi [13: 3]. Marg’ilon atlasi dunyoning 167 mamlakatiga yetkaziladi [14:2]. 2020-yilda hunarmandlar bozorida 45 nafar hunarmand faoliyati yo’lga qo’yilgan bo’lib, 300 ta yangi ish o’rni yaratilgan. 35 milliard so’m mablag’ sarflangan markazda 14 ta savdo do’koni mavjud edi [14:2].

Ipak yo’li bo’ylab O’zbekiston to’qimachilik markazi sifatida tanilgan, bu erda ayollar o’zlarining san’atlarini rivojlantirganlar. Qo’lda yigirilgan ipak ip odatda qo’lda yigirish texnikasi orqali ishlab chiqarilgan ipak ipni anglatadi. Qo’lda yigirilgan ipak ip nafaqat amaliy ahamiyatga ega, balki yuksak badiiy-madaniy ahamiyatga ega bo’lgan noyob va qimmatbaho to’qimachilik mahsulotidir. Bitta pilla ipining uzunligi 2 kilometrga teng bo’lgan. Quruq, toza ipak matolar qisqarishi mumkin va pasayishi mumkin. Ipak matolar juda yumshoq yoki silliq

bo'lib, qog'oz varaqlariga yaxshiroq joylashishi mumkin. Keyin naqsh matoga, shuningdek barcha qatlamlar bir-biriga kesilgan holda biriktiriladi [7:628].

Ipak matolar orasida eng mashhuri abrli atlas va xonatlasdir. Ularning o'ziga xosligi – bezak va gullar matoga emas, balki o'rish ipining o'ziga chiziladi. Aytaylik, uzunligi 200 metr, eni 40 santimetr atlasni to'qish uchun 3 ming 600ta ipak tolani bir-biri bilan uyg'unlashtirish lozim [11:3]. Bitta tola uzilsa ham mahsulot sifatiga putur yetadi. Shu bois matoga yangi element qo'shish juda qiyin. Iplarni "abr" usulida bo'yash ham katta mahorat talab etadi. E'tiborlisi, barcha ranglar tabiiy usulda, bo'yoq beruvchi giyohlardan tayyorlanadi. Shu bois ular o'z sifatini yo'qotmaydi, ranglar qorishib ketmaydi.

Atlasdan ayollar liboslari, ko'rpa, ko'rpachalar, erkaklar qiyig'i va boshqa buyumlar tikilgan. Adrasdan esa ayollarning kiyim-kechaklari bilan birga chopon, ko'rpa, ko'rpachalar tikilgan va ushbu hunarmandchilik davom etib kelmoqda [11:3].

O'zbekistonda ko'plab hunarmandlar tomonidan qadimiy namunalar asosida ishlab chiqarilayotgan "O'zbekiston go'zali", "Marg'ilon", "Bibixonim", "Begoyim", "Kelinchak atlas", "Bargi karam", "Namozshomgul", "Guldasta", "Navro'z", "Qo'chqorshox" deb nomlangan ipak matolari dunyo miqyosida e'tirofga sazovor bo'ldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning milliy hunarmandchiligi rivojida ipakchilikning o'rni beqiyosdir. Ipakchilik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Ipakchilik an'analari milliy hunarmandchilikning turli yo'nalishlarida (atlas, adres, shoyi to'qish, kashtachilik va boshqalar) namoyon bo'ldi.

Ipak mahsulotlari milliy madaniyatni targ'ib qilish va xalqaro miqyosda tanitishda muhim rol o'ynadi. Ipakchilik qishloq joylarida, ayniqsa, ayollar uchun muhim daromad manbai hisoblandi. Ipakchilik an'analari avloddan avlodga o'tib, milliy qadriyatlarni saqlashga yordam berdi. O'zbekistonning milliy hunarmandchiligi rivojida ipakchilikning o'rni muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.07.2009 yildagi 216-sон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 17.11.2017 йилдаги ПФ-5242-сон
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori PQ-77-сон, 30.12.2021
4. N.Alimova. O'zbekistonda ipakchilikning ahvoli va transformatsiya jarayoni (1865-1991-yillar). – Toshkent: Dono, Monografiya. 2019. 1-179 –bet
5. Z.Esonov. Farg'ona vodiysi aholisi to'qimachilik hunarmandchiligi an'analari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. -№12G'1(3)-2023. 113-bet
6. N.Abdinazarov. O'zbekistonda xalq hunarmandchilik turlari. Ta'lim fidoyilari-01.06.2022 421-bet
7. M.Xoshimova. Ipak matolarining turlari va ularning tahlili. <https://cyberleninka.ru/article/n/ipak-matolarining-turlari-va-ularning-tahlili> (627-632)
8. <https://uzbekistan.travel/uz/o/marg'ilon-hunarmandchilik-markazi/>
9. <https://yuz.uz/uz/news/hunarmandchilik-azaliv-qadriyat>
10. <https://yuz.uz/uz/news/fargananing-qoshtepasi--asl-milliy-matolar-markazi>
11. <https://uza.uz/oz/posts/atlas-va-adras-milliy-qadriyatlarimiz-jilosি>
12. <https://yuz.uz/uz/news/toshkent-viloyati-hunarmandlari-fargonalik-hunarmandlardan-tajriba-almashishyapti>

13. <https://daryo.uz/2020/06/09/margilon-shahrida-hunarmandchilik-markazi-hamda-hunarmandlar-bozori-foydalanishga-topshirildi>
14. <https://daryo.uz/2020/12/15/margilon-shahriga-2021-yilda-jahon-hunarmandlari-shahri-maqomi-berilishi-mumkin>
15. <https://turkic.world/uz/articles/other/26335>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).